

**MAXSUS MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARIDA TOVUSH  
MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI.****Soliyev Ilhom Soliyevich***Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)***Aminjonova Umida Kosimaliyevna***Farg'ona Davlat Universiteti o'qituvchisi***Akbarova Muhliisa Ahmadali qizi***Farg'ona Davlat Unniversiteti talabasi*

Nutqning tovush madaniyatiga doir bir qancha vazifalarni: tovush talaffuzi, sur'ati, diksiya, tasviriylik va boshqalarni amalga oshirishdagi asosiy yo'l ishning frontal shaklidir. Bundan bolalar bog'chasining hamma guruhlarida foydalaniladi. Bu ish avvalo mashg'ulot shaklida amalga oshiriladi va unga har xil mazmundagi mashqlar kiritiladi. Tovush talaffuzi, nutqda nafas olish, eshitish mashqlari har kuni olib boriladi. Ba'zi mashqlar nutq o'stirishga oid boshqa mashg'ulotlar jumlasiga kiritiladi. Kichik guruhlarda bolalar bilan olib boriladigan ishlar ommaviy tarzda hamma bolalar bilan o'tkaziladi. Shuningdek, yakka tartibda ham olib boriladi. Bolalar bilan yil davomida undosh tovushlardan p, b, m, n, t, d, q, g, f, v, n; sirg'aluvchi s, z, sh, j, ch; unli tovushlardan a, o, u, i, o', e larni talaffuzi nutq orqali nafas olish, eshitish idrokini, nutq apparatining harakatini, nutq apparatini rivojlantiruvchi ishlar bilan olib boriladi. Tovushlarni mustahkamlash mashqlarini boshqa mashg'ulotlarga qo'shib olib borib, uning tarkibiy elementi yoki maxsus qismi sifatida kiritish mumkin. Masalan: mashg'ulotlarini birinchi qismida "Qo'g'irchoqni uxlatamiz" didaktik o'yin o'ynaladi, ikkinchi qismida eshitish idrokini o'stiradigan mashqlar bajariladi. "Ovozidan top" o'yin o'ynaladi (4-5 daqiqa), eshitish nutqini, diqqat bilan eshitishni, nafas olishni, nutq apparatining harakatini rivojlantiruvchi mashqlar ertalabki, kechki soatlarda, sayr vaqtlarida o'tkaziladi. O'rta guruhlarda qiyin tovushlarni talaffuz qilishga o'rganish maxsus mashg'ulotlari bir necha qismdan iborat, bir mazmunga birlashgan holda tuzib o'tkazish yaxshi natija beradi. Masalan: mashg'ulotlarning birinchi qismida bolalar oldiga o'quv vazifasi qo'yiladi. -Sh tovushini aytishga o'rgatish: bunda tovush artikulyatsiyasi ko'rsatiladi, tushuntiriladi va bolalarga mashq qidiriladi. Mashg'ulotning ikkinchi qismida esa bolalar shu tovushning talaffuzini so'zlarda (shamol, shahar, eshik, mushuk, bosh, tosh, yo'ldosh) mashq qiladilar. Bu qism didaktik o'yin, dramalashtirilgan hikoya, insenirovka shaklida berilishi ham

mumkin. Nutqning tovush madaniyati ustida ishlash katta va tayyorlov guruhlarida davom ettiriladi.

Tizimli ravishda olib borilgan ishlar natijasida maktabga tayyorlov guruhidagi barcha bolalarda ona tilidagi hamma tovushlarni to'g'ri talaffuz etadigan bo'lishlari lozim. Lekin shunga qaramay, katta va tayyorlov guruhlarida ham mashg'ulotlar hamma bolalar bilan frontal tarzda o'tkaziladi. Bunda maxsus mashg'ulotlarning maqsadi o'zgaradi. Bunda bolalar tovushlarni to'g'ri talaffuz etishni mashq qiladilar va ularda nutqdagi tovush madaniyatining boshqa tomonlari (turli ovoz kuchidan, turli nutq sur'atidan foydalana bilish) tarbiyalanadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi aqli zaif bolalarga turli nutq tovushlari: she'r o'qish, tez aytish, maqollar, suratlarni qayta hikoya qilish, ifodalash asosida tovushlarni to'g'ri talaffuz etishni mashq qildirib borish lozim. Katta guruhlarda haftada 2-3 marta mashg'ulotlarda tashqari vaqtda jamoa bo'lib o'ynaladigan harakatli, nafas, eshitishni rivojlantiruvchi takroriy o'yinlar o'tkaziladi. Katta guruhlarda frontal ishdan tashqari tovush talaffuzida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan yakka tarzda qo'shimcha mashg'ulotlar joriy qilinadi. Tekshiruvlar o'tkazilgach talaffuzdagi nuqsonlariga qarab bolalar guruhchalarga ajratiladi. Masalan: Anvar, Nasiba, Dilbar "r" tovushini talaffuz eta olmaydilar. Tarbiyachi bu bolalar bilan har haftada 2-3 marta qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazadi (ertalabki va kechki soatlarda). Bu mashg'ulotlarning har biri 10-12 daqiqa davom etadi. Masalan :

1. To'g'ri gapirishni o'rganishning zarurligi haqida suhbat.
  2. Tovush artikulyatsiyasini ko'rsatish va tushuntirish.
  3. Shu tovushni talaffuz etishni bolalardan so'rash.
- Eshituv idrokini shakllantirish.

Nutqning tovush tomonini o'zlashtirishda eshitish boshqaruvchi analizator hisoblanadi. Fonematik eshituvning rivojlanishi bolaning ona tilidagi tovushlarni, ayniqsa, so'zning tovush tizimini tez va to'g'ri o'zlashtirib olishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. So'zning tovush tarkibini to'g'ri idrok qilish uni to'g'ri eslab qolishning asosiy omillaridan biridir. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda esa fonematik idrok kech shakllanadi. Bolalar atrofidagi odamlar nutqidagi tovushlarni farqlay olmaydilar. Fonematik idrokning yaxshi shakllanmaganligi bir tovushni ikkinchi tovushga almashtirishga, so'zning tovush tarkibini analiz qilishda qiyinchiliklarga olib keladi. Maxsus tashkil qilingan mashg'ulotlarda maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning fonematik idrokini shakllantirishda tovushlarni aniqlash, so'zdagi tovushlarni ajratish, sonini, o'rnini aniqlash ishlarini olib borish lozim. Eshituv idroki bolada erta rivojlanadi. 2-3 haftalik me'yorda rivojlanayotgan bolada

nutqqa, ovozga nisbatan ba'zi bir terma reaksiya boshlanadi; 5-6 oylarda u intonatsiyaga, keyinchalik nutqning ohangiga e'tibor beradi. 2 yoshga yetganda ona tilidagi hamma tovushlarni eshitadi va bir-biridan ajrata oladi. 2 yashar bolada eshitish nutqi tarkib topgan deb hisoblash mumkin, chunki u ona tilidagi hamma tovushlarni ajratadi, eshitish nutqining bunday darajada bo'lishi nutq orqali amaliy aloqa qilish uchun yetarlidir. Tovushlarni analiz qilish yoki fonematik idrok qilish, so'zda qaysi tovush eshitilganligini va miqdorini aniqlash qobiliyatini tekshirish maqsadida hamma yosh guruhlarida eshituv idrokini tarkib topdirish ishi olib boriladi. Eshitish diqqatini rivojlantirishda didaktik o'yinlar muhim ahamiyatga ega. Kichik guruhlarda eshituv idrokini tarkib toptirish mashg'ulotlarida musiqa asbobilari, ovoz chiqaradigan o'yinchoqlardan foydalaniladi. Ular vositasida bolalar ovozining kuchi va xarakterini ajratishni o'rganadilar. Masalan: "Qayerda chalinadi?" o'yinida bir bola ko'zini yumib, qay tomonda qo'ng'iroqning ovozi kelayotganini qo'li bilan ko'rsatishi kerak. Agar bola to'g'ri topsa tarbiyachi "to'g'ri!" degandan keyin ko'zini ochadi. Qo'ng'iroqni chalgan bola qo'lini ko'tarib, qo'ng'iroqni ko'rsatadi. Agar yanglishsa, topish uchun unga yana bir marta imkon beradi, so'ng boshqa bola o'yinga chiqariladi. "Top-chi, nimani chaldilar?" o'yini ham keng tarqalgan o'yinlardan biridir. Katta guruhlarda eshitish idrokini o'stirish faqat shunga o'xshash o'yinlardangina emas, balki radio, gramplastinkalar eshittirish usulidan ham foydalaniladi. "Bir muncha tinchlik" o'yinini o'tkazib turish, uni "Kim ko'p eshitadi", "Xonada nima haqida gaplashayotirlar" degan mashqlar bilan almashtirib turish lozim. Bu mashqlar davomida alohida bolalarga eshitgan narsalarni talaffuz etishni taklif qilish mumkin (jo'mrakdan suv tomchilayapti, ko'chada mashina shovqini eshitildi, chumchuq chirqillayapti va boshqalar). Nutq va so'zdagi tovushlarni idrok qilish va yaxshi tushunish uchun eshitish idrokini rivojlantiruvchi o'yinlar, masalan: "Men nima dedim, top" didaktik o'yini o'tkaziladi.

Defektolog bolalardan bir necha metr narida turadi, keyin bolalar eshitib topishlari uchun lozim bo'lgan so'z yoki jumlaning avval sekin, keyin shivirlab talaffuz etadi. Bolalarga o'yin qoidasi tushuntiriladi: "Men bir so'zni sekin aytaman, siz diqqat bilan eshiting va nima aytganimni toping. Men kimni chaqirsam, shu bola nima eshitganini aniq va baland ovoz bilan aytib beradi".

Kichik guruhlarda bu o'yin dastlab ko'rsatma materiallar bilan o'tkaziladi. Defektolog bolalar oldida turgan o'yinchoqlarning nomini sekin aytadi va bolalarga qiyin bo'lmagan topshiriq beriladi. (Dilbar qo'g'irchoqni karavotga yotqiz, "Qosimjon bayroqchani vazaga qo'y"). Defektolog bu

topshiriqlarni bolalarga qarab turib aytadi, bu esa bolalarni aytilgan so'zlarning artikulatsiyasini ko'rib tez topishlariga yordam beradi. Bir necha takrorlanishidan so'ng o'yin topshirig'i murakkablashtiriladi. Defektolog so'zni bolalarning orqasida turib talaffuz etadi, topshiriq bir marta aytiladi. 4-5 bola chiqib nima eshitkanlarini aytadi, so'ng kim to'g'ri topgani aniqlanadi. Katta guruhlarda bu o'yin variantlari ancha murakkablashtirib o'tkaziladi.

Defektolog bolalarga eshitishi jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan so'zni topishlarini taklif qiladi (Masalan: ko'k-ko'p, yil-yo'l, suv-sut, tiz-tis, tuz-tus). "Men nima dedim, top" o'yini 3-7 daqiqa davom etadi.

Ovoz sur'atini farq qilish uchun turli variantlardagi o'yinlardan foydalaniladi. Masalan: "Top-chi, kim chaqirdi?" degan o'yinda bolalar o'rtoqlarini ovozlaridan topadilar. Bolalarga qanday chaqirganligini (sekin, qattiq, tez, muloyim) aniqlash topshirig'i beriladi.

Defektolog o'yinda qo'llaniladigan so'zlarni oldindan tanlashi lozim. Tanlangan so'zlarning mazmuni bolalarga tanish bo'lishi, birinchi navbatda tanlangan so'zlar tovush tarkibi jihatidan qiyin bo'lmasligi, so'ng ovoz chiqarish (eshitish) jihatidan oson, lekin mazmuni har xil bo'lishi lozim (Masalan: suv-sut, tiz-tuz).

Eshitish diqqatini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlardan namuna keltiramiz.

"O'yinchoqni top" o'yini.

Bolalar yarim doira shaklida o'tirishadi. Tarbiyachi yashirinishi lozim bo'lgan o'yinchoqni bolalarga ko'rsatadi, so'ngra bolalardan bittasini chaqiradi. Chiqqan bola yuzini teskari o'girib yoki ko'zini yumib turadi. Bu vaqtda tarbiyachi o'yinchoqni bolalardan birortasini orqasiga yashiradi. Tarbiyachi bo'ldi deyishi bilan chaqirilgan bola o'tirgan bolalarning oldiga yaqinlasha boshlaydi. Bolalar esa sekin-sekin chapak chala boshlashadi. Bola o'yinchoq yashirilgan joyga yaqinlashib kelsa, chapakni tez-tez, baland chalinadi, agarda o'yinchoq yashiringan joydan uzoqlashsa, chapak sadosi yana pasayadi. Tovushning kuchi bilan bola o'yinchoq qaysi bolaning orqasida ekanligini topib oladi. O'yinchoq topilgandan so'ng, o'yin qayta boshlanadi.

Metodik ko'rsatma: tarbiyachi bolalarni chapagi kuchli va sekin chalinishiga doimo e'tibor berishi va uni boshqarib turishi kerak. Agar bola o'yinchoqni ko'p qidirsay-yu, topa olmasa, u vaqtda tarbiyachi yordam berishi darkor.

Nutqda nafas olib nafas chiqarishni rivojlantirish.

Nutqda nafas olib nafas chiqarishni rivojlantirish nutq bilan mahkam bog'langan. Nafas olish 2 xil bo'ladi: nutqsiz va nutqli.

Nutqsiz nafas o'z-o'zidan chiqadi. Bola nafas oladi va chiqaradi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi aqli zaif bolalarda nutqli nafas olish o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Bu xususiyatlar avvalo o'pkaning kichikligi va nafas muskullarining bo'shligiga bog'liqdir, bolalar nafasi chuqur emas, shuning uchun ular tez, keskin ko'p vaqt shovqinli nafas olib chiqardilar, yelkalari keskin ko'tariladi, ularda har bir so'zdan oldin, o'rtasidan nafas olish, nafas olib so'zlash kabi hollar uchraydi.

Nutqi tezlashgan bola entikadi, so'zning, jumlaning oxirini yamlab yuboradi. Muskullarining zaifligidan ko'pchilik bolalarda gavdaning holati noto'g'ri: bosh pastga egigan, kiftlar oldinga chiqqan, ko'krak ichiga kirib ketgan bo'ladi.

Defektologning vazifasi bolani nutq jarayonida to'g'ri nafas olishga o'rgatish va nutq davomida nafas olishda uchraydigan nuqsonlarni yo'qotib borishidir. Nutqsiz va nutqda nafas olish bir-biridan farq qiladi. Nutqsiz nafas olishda nafas olish bilan chiqarish vaqti barobar, tartibli navbatlashib turadi. Nafas burun orqali olinadi. Nutqda nafas olganda nafas olish vaqt jihatidan tez, nafas chiqarish nafas olishga qaraganda bir muncha uzun bo'ladi. Nafas ham og'iz, ham burun orqali olinadi. Nutqda nafas olishning eng yaxshi turi diafragmali, quyi qovurg'a yordamida nafas olishdir (nafas olganda diafragma pastga tushadi va pastki qovurg'a ikki tomonga kengayadi, shuning uchun kiftlar ko'tarilmaydi).

Bolada avvalo tinch, shovqinsiz, kiftni ko'rarmay nafas olishni rivojlantirish lozim. Nutq vaqtida uzoq nafas chiqarish bolaning yoshiga mos bo'lishi kerak.

Kichik guruhlarda bola nafas chiqarish vaqtida 1-2 so'zdan iborat jumlani, o'rta va katta guruhda bola 3-4 so'zdan iborat jumlani talaffuz etishi lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni shoshmasdan so'zlashga, har bir jumlani so'zlab yoki har bir she'r misrasini aytib bo'lgandan so'ng nafasni rostdashga odatlantirish kerak. Nutqda nafas olishni rivojlantirish uchun bola yoshiga mos nafas oladigan o'yin va mashqlardan foydalanishi zarur.

Defektolog fiziologik to'g'ri, osoyishta nafas olish uchun bolalarga nafasni burundan olib, keyin og'izdan chiqarish maqsadga muvofiq ekanligini tushuntiradi. Mashq oldin bolalar jamoasi bilan keyin o'zlashtirish imkoniyati sust bolalar bilan yakka tartibda o'tkaziladi.

Quyidagi nafas mashqlari o'tkaziladi: paxtaga puflash, yonib turgan shamni bir nafas chiqarishda o'chirish, issiq choyni puflash, olovni o'chirish.

Nutqiy nafasni takomillashtirish uchun quyidagi nafas-ovoz mashqlari taklif qilinadi: gulni hidlash va "oh" deyish, qo'llarni isitish, sovun pufagini ishirish, yig'lash, shamol esyapti kabilarga taqlid qilish.

Kichik guruhlarda bolalarga juda yoqadigan sovun ko'pigini uchirish, par, yupqa, rangli qog'ozlarni puflab uchirish o'yinlari o'tkaziladi. Bunday o'yinlarni o'tkazgan vaqtda bolalarni nafas olganda yelka qismlarini ko'tarib yubormasliklariga e'tibor berish lozim. Bunday nafas oladigan o'yinlarni uch daqiqadan ortiq o'tkazmaslik va o'yin vaqtida dam berib borishga e'tibor berib borish kerak.

Katta guruhlarda qo'llarni ohista yuqoriga yelka barobarida ko'tarish-nafas olish, sekin-asta qo'llarni pastga tushirib "s-s-s" deb nafas chiqarish mashqlari o'tkaziladi. Bolalar "s-s-s-s" tovushini to defektolog to'xtatgunga qadar cho'zib aytadilar.

"Bu qachon bo'ladi" o'yini.

Defektolog doskaga yilning to'rt faslini tasvirlovchi rasmni osib qo'yadi. Har bir fasl tasvirini tagida qog'ozdan yasalgan cho'ntakchalar bo'lib, unga u yoki bu faslda bo'ladigan hodisa va voqealarni tasvirlovchi kichik-kichik rasmlarni solib qo'yish mumkin ("Bolalar qorbobo yasayapti", "O'gil bolalar qushlar uchun uylar osishyapti", "Qizlar guldastalar tayyorlashyapti", "Sarg'aygan barglari to'kilyapti" va boshqalar). Tarqatma materiallarni "Yil fasllari" degan lotodan yoki turli jurnallarda, kitoblardan tanlab olish mumkin.

Tarbiyachi bolalarni navbatma-navbat chaqirib bittadan rasm beradi. Bola stol oldiga kelib, qo'lidagi rasmini bolalarga ko'rsatadi va defektolog tomonidan berilgan savolga javob beradi. Masalan "Bolalar daryoda qachon cho'miladi?" (Bolalar daryoda yozda cho'miladi). Bola savolga to'liq javob berib bo'lgach, rasmni tegishli yil faslining tagidagi qog'oz cho'ntakka solib qo'yiladi.

Metodik qo'llanma: tarbiyachi o'yinni boshlashdan avval bolalarga shunday deydi, har bir so'zdan keyin to'xtalib, bo'lib-bo'lib gapirmasligi kerak. Agar bola tarbiyachi bergan savolga to'g'ri javob berolmasa, yoki bo'lib-bo'lib gapirsa, tarbiyachi to'g'ri nutq namunasini beradi. So'ngra bola takrorlaydi.

Artikulatsiya va burro gapirishni (ohang, nutq) tarbiyalash

Artikulatsiya tovushlarni aniq hosil qilish uchun nutq apparatini to'g'ri holatda bo'lishi va ishlatilishi muhimdir. Ohang esa so'zlashganda va ashula aytayotgan so'zlarni aniq tushunarli talaffuz etishdir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi aqli zaif bolalarda nutqning noaniqligi, labning boshlashi, tilning sust erinchoq harakat qilishi, pastki jag'ning kam harakatlarini natijasida og'izning

yomon ochilishi kabi hollar uchrab turadi. Bularning sababi artikulatsiya apparatining lab,til,,pastki jag'ning sust va harakatlanmasligidir.

To'g'ri artikulatsiyasiya va hammadan avval unli tovushlarni to'g'ri talaffuz etish so'zlarni aniq talaffuz etishni ta'minlaydi

Defektologning vazifasi aqli zaif bolalarda nutq a'zolarining harakatini rivojlantirish yo'li bilan diksiyani tarbiyalashdir.

Artikulatsiyasiya va diksiyani tarbiyalashga yordam beradigan asosiy vositalardan biri bolalarning tovushlarga taqlid qilib o'ynaladigan o'yinlaridir. Bu o'yinlarda faqat artikulatsiya va diksiyagina emas, balki umumiy nutq malakasi:sur'at,ritm,ovoz ham tarbiyalanadi.Bu o'yinlar jarayonida defektolog tovushlarni ko'p talaffuz etishni ko'rsatadi,bolalar unga taqlid qilish orqali o'z nutq a'zolarini mashq qoldiradigan.

Tovushlarga taqlid qilish o'yinlar uchun artikulyatsiya harakatlari sekin-asta qiyinlashib boradigan tovushlardan foydalanish mumkin.Avtomobil "biy-biy-ib" tramvay "din-din", soat :chiq-chiq", bolta urishi "tuq-tuq", poyezd "tu-tu" yoki "pish-pish", sigir "mu-mu",qo'y "ba-ba",echki "be-be",mushuk "miyov-miyov", it "vov-vov",tovuq "qo-qo-qo",jo'ja "pi-pi-pi",g'oz "g'a-g'a-g'a", o'rdak "g'aq-g'aq-g'aq",samolyot "r-r-r",asarlari "z-z-z",qo'ng'iz "j-j-j", qarg'a "qarr-qarr-qarr".

Artikulyatsion apparatlarni tovushlarni taqlid qilish shaklida mashq qildirish uchun turli xildagi didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. Masalan: "ajoyib xaltacha" o'yinda tarbiyachi xaltacha ichiga 10-12 ta hayvonlarni tasvirlovchi o'yinchoq soladi,chaqirilgan bola xaltacha ichidagi biron-bir o'yinchoqni olib uning nomini aytishi va u qanday ovoz chiqarishini ovoz bilan ko'rsatishi lozim.

"Top-chi, bu nima?" didaktik o'yinda bolalar tovush taqlidiga qarab hayvonning nomini aytishlari kerak. Bu o'yinning variantlari juda ko'p.

Masalan: kichik guruhlarda bunday o'tkazish mumkin.

Defektolog: topinglar-chi,nima shunday maraydi. "Mo'-mo'!"

Bolalar :sigir

Defektolog: "Miyov-miyov-miyov!"

Bolalar: mushuk

Defektolog: Hozir sizlar aytasizlar,men topaman

Defektolog hayvonlar tasvirlangan suratni o'zi qaramay,bolalarga ko'rsatdi.Bolalar esa hayvonning ovozini taqlid qilib aytadilar,defektolog uni "topadi" va uni nomini aytadi.

Bu o'yinni mana bunday o'tkazish ham mumkin. Stol ustiga turli buyumlarning suratini teskarisi bilan qo'yiladi. Bolalar defektologning

chaqirishi bilan stol oldiga keladilar,xohlagan suratlarini oladilar va suratda tasvirlangan hayvonlarning ovozi taqlid qiladilar.

Hamma bolalar shu hayvonning nomini aytadilar va xor bo'lib takrorlaydilar.

Tovushga taqlid qilishda harakatli o'yinlardan ham foydalaniladi. Masalan: "Poyezd" o'yini. Bolalar bu o'yinda poyezdning gudok berishiga ("du-du"), g'ildiraklarining taqirlab yurishiga ("taqir-tuqur","taq-taq"),to'xtash va yurish oldidan (pish-pish-sh-sh-sh) ovoz chiqarishga taqlid qilib uni aks ettiradilar. "Chumchuqlar va avtomobil" o'yinida chumchuqlar yo'llarda sakrab-sakrab yurib, "chiriq-chiriq-chiriq" deb chirillaydilar, avtomobil esa yurib ketayotib, "biy-biy-bib" deb signal beradi va chumchuqlar uchib ketadilar.

Tovushga taqlid qilish hikoya, ertak,she'rlar orqali o'tkazilishi ham mumkin. Defektolog tovushlarga taqlid qiluvchi qisqa didaktik hikoyalarni tuzish ham mumkin. Masalan: bog'da o'tkazilgan sayr haqida hikoya qilish mumkin. Bunda bolalar o'zlari eshitgan qushlarning ovozi, barglarning shitirlashini va boshqalarni aks ettiradilar. Hikoya davomida bir necha bor tovushlarga taqlid qilish orqali bolalar ularni tez o'zlashtirib oladilar.

Tovushlarga taqlid qilish mashqlarni suratlar orqali ham o'tkazish mumkin. Maktabgacha yoshda aqli zaif bolalar bilan tez aytishdan foydalanishda quyidagilarga ahamiyat beriladi. Avvalo defektolog bola uchun tushunarli,murakkab bo'lmagan tez aytish lozim bo'lgan matnni tanlaydi. Agar bolalar 1-2 ta tez aytishni yodlasalar,u holda o'quv yili uchun undan 8-10 tasini tanlash lozim ( avvalo sodda,so'ngra murakkab beriladi)

Defektolog yengil tez aytishni o'zi yoddan, shoshmasdan, aniq,ravon,tez uchraydigan tovushlarni ajratgan holda talaffuz etadi.Uni bir necha marta,asta-sekin ohangdor qilib o'qiydi. U bolalar oldiga tez aytishni qanday talaffuz etishini diqqat bilan eshitish va ko'rib turish, uni aniq,ravon aytolishga o'rganish kabi vazifalar qo'yadi. So'ng bolalar uni mustaqil ravishda yarim ovoz bilan aytadilar. Tez aytishni takrorlash uchun defektolog dastlab xotirasi,ohangi yaxshi bolalarni chaqiradi. Bolalar javobidan oldin ularga takroran aniq va ohista gapirish haqida ko'rsatma beradi. Shundan so'ng tez aytishni hamma bolalar birga aytadilar. Bunday mashqlar uzog'i bilan 3-10 daqiqaga davom etishi lozim. Tanish tez aytishlarni nutq o'stirish mashg'ulotlarining ikkinchi qismiga ko'ngil ochish vaqtiga,adabiy erkaklarga kiritish mumkin.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar tovush madaniyatini shakllantirishda tovush, so'z talaffuzini,intonatsiya, sur'at,ovoz kuchi va nutqning ta'siri hamda tasviriy ohandorligini oshirishga katta ahamiyat berish

muhim hisoblanadi. Nutq madaniyatining asosini eshitish nutqi va nutqda nafas olib nafas chiqarish tashkil qiladi. Bularni egallamasdan nutqni yaxshi egallab bo'lmaydi. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda tovush madaniyatini shakllantirish qiyinchilik bilan amalga oshadi. Chunki ularda bosh miya organik jarohatlanishi natijasida, bilish faoliyatida turg'un buzilishlar kuzatiladi. Bu o'z vaqtida nutqni rivojlantirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar ko'p tovushlarni, ya'ni sirg'aluvchi (s,z), shovqinli (sh,j,ch),til orqa (q,g,h),chuqur til orqa (q,g,x,)sonor(p,r) tovushlarni talaffuz qila olmaydilar yoki noto'g'ri talaffuz qiladilar. Bunday holat bola nutqini harakatga keltiruvchi apparatning sust yoki rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Shuningdek, ba'zi bolalar so'zdagi bo'g'inlarning joyini o'zgartirib,so'zni noto'g'ri aytadilar. Masalan, "dahliz-dalhiz","deraza-dezara". Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda tovushlarni talaffuz qilish har xildir.

5-6 yashar aqli zaif bolalarning ayrimlari boshqalarga nisbatan nutqni birmuncha yaxshi egallaydi, ba'zilarining nutqini umuman tushunib bo'lmaydi.

6-7 yoshga kelib bolalarning nutqi birmuncha o'zgaradi, ular nutqida ba'zi bir tovushlar paydo bo'la boshlaydi. Dastlab bolalar bu tovushlarni aniq talaffuz eta olmaydilar. Defektolog yordamida bu tovushlar o'zlashtirib boriladi. Bunda talaffuzning turg'un bo'lmasligi aqli zaif bolalar uchun xarakterli xususiyatlardandir. Bolalar tovushlarni ba'zan to'g'ri, ba'zan noto'g'ri talaffuz qiladilar. Bu tasodifiy bir hol bo'lmay, bola yangi tovushni eski tovush bilan chalkashtirib yuboradi, yangi tovushni o'rinli, o'rinsiz ishlataveradi. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning nutqini harakatga keltiruvchi apparatlarning sust yoki rivojlanmaganligi sababli nutq a'zolarining harakatchanligini oshirish maqsadida mashqlar olib borilishi lozim. Tovush va so'zlarning toza,aniq talaffuz etilishi artikulyatsiya harakatining aniqligi hamda kuchiga bog'liq. Shuning uchun aqli zaif bolalarda tovushlarni to'g'ri talaffuz etishni tarkib topdirib borish bilan birga alohida nutq a'zolarini harakatga keltiruvchi apparatlarini: lab, til, luj muskullarini doimiy mashq qildirib borish va jag'ning harakatchanligini o'stirish uchun artikulyatsion mashqlardan foydalaniladi. Masalan:

- lab uchun umumiy artikulyatsion mashqlar: labni kulgi holatiga keltirish, labni cho'chchaytirish;

- til uchun- tilni yuqori-pastga, o'ng-chapga harakatlantirish, tilni kengaytirish, ingichka holga keltirish, tilni kengaytirib pastki,so'ng yuqori lablarni yopish,pastki va yuqorigi tishlarni til bilan aylana harakat qildirish;

- jag' uchun -og'izni ochib, yopish, pastki jag'ni o'ngga va chapga fazoviy munosabatni aks ettiruvchi harakat qildirish;

- lunj uchun- lunjni shishtirish, havoni bir tekis chiqarish, havoni kuch bilan chiqarish.

Ko'pincha artikulyatsion mashqlar o'yin xarakteriga bo'ladi.

O'yinda bolalar kerak bo'lgan so'z va tovushlarni bir necha bor takrorlaydilar.

Bunday ishlarni o'tkazish metodlari quyidagilardan iborat: ko'rsatma materiallar bilan o'ynaladigan didaktik o'yinlardan, masalan: lozim bo'lgan tovushlar ishtirok etadigan o'yinchoqlar to'plami bilan "Ajoyib xaltacha" o'yinidan yoki og'zaki didaktik " Bu kimning uyi "( hayvonlarning ovozigga taqlid qilish uchun), "Orkestr" ( musiqa arbobining ovozigga taqlid qilish uchun) o'yinlardan foydalanish mumkin.

Bulardan tashqari, harakatli " Ot-otakam" ( bolalar otga taqlid qilib, tayoqlarning ovozini chiqaradilar, aravakashni tasvirlab, tillarini cho'pillatadilar. Har ikki holda ham bolalar tilning harakatchanligini tarbiyalashga qaratilgan o'yin harakatini bajaradilar). " Poyezd", "Chumchuqlar va avtomobil" o'yinlari o'tkaziladi. Tovushlarga taqlid qiluvchi hikoyalar o'qiladi ( Qarg'avoy ertagini qayta aytish), maxsus tanlangan ashula, she'rlar yoddan aytiladi, katta guruhlarda esa tez aytish mashqlari o'tkaziladi. Asosiy usullar to'g'ri talaffuz namunasini ko'rsatish yakka-yakka va birgalikda takrorlash, ko'rsatma berish hamda tushuntirishdir. Bu usullardan narsalar va suratlarni ko'rish, sayrda kuzatish vaqtida ham foydalanish mumkin.

O'quv yilining boshida hamma guruhlarda o'yin va mashqlarga talaffuz jihatidan oson (p,b,m,t,d,l) tovushlar kiritiladi. Defektolog bolalar artikulyatsion apparatining ishini kuzatib boradi, kimning lab va jag'i kam harakat qilsa, uni faollashtirish.

Bunday mashg'ulotlar bir necha marta o'tkazilgandan keyin o'yin mazmuniga qiyinroq shovqinli tovushlar (j,sh,ch), shuningdek, til orqa (q,g), chuqur til orqa (q,g'), sonor (r) tovushlar ham kiritiladi. So'zlarni to'g'ri talaffuz etish yuzasidan olib boriladigan ishlar alohida ahamiyatga ega. Maktabgacha tarbiya yoshidagi aqli zaif bola uchraydi ( so'zdagi bo'g'inlarning o'rnini almashtirib yuboradi). So'z tuzilishi to'g'ri saqlab qolishda nutq sur'atining ohistaligi, talaffuzning ravon bo'lishi juda muhim. Bolalarda ashulali matnlarida, qiyin bo'lmagan she'rlarni sekin o'qish davomida tarbiyalab boriladi. So'zlarni talaffuz qilish ustida ishlash uchun "Do'kon ", "Kutubxona" singari didaktik o'yinlardan ham foydalaniladi.

"Do'kon" o'yinida bolalar boshqaruvchiga, ya'ni sotuvchiga murojaat etib, har bir so'zni ravon aytishga o'rganadilar.

Katta guruhlarda namuna bo'yicha hikoya qilishdan foydalaniladi. Bunda bolalar xato qiladigan so'zlar qo'llaniladi, bolalar mana shu berilgan namuna asosida o'zlarining kichik hikoyalarini tuzadilar. Bu tuzgan hikoyalarida berilgan so'zlardan albatta foydalanadilar. Defektolog katta guruhlarda radio eshittirishlarini tinglash, televideniye ko'rsatuvlarini tomosha qilish (mashg'ulotda va mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda) ishlarini sistemali ravishda tashkil etish lozim. U bolalarning e'tiborini so'zlayotgan kishining nutqining to'g'riligi va talaffuzining go'zalligi jalb qiladi. Umuman nutqlarining orfoepik jihatdan to'g'ri bo'lishiga bolalar kattalar nutqiga taqlid qilish bilan erishdilar.

Bolalarning adabiy til talaffuzini to'g'ri o'zlashtirishlari va uni takomillashtirishlari uchun defektolog tomonidan juda ko'p kuch sarflashi lozim.